

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK
VA BIOTEKNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

IQTISODIYOT FAKULTETI

BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT KAFEDRASI

60410100-“Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo‘jaligida)” ta‘lim yo‘nalishi

304-guruh talabalari uchun

FAYZULLAYEV MURODBEK NEMATULLAYEVICHning

“Soliq va soliqqa tortish fanidan” fanidan

**“Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i” mavzusida ochiq amaliy
darsining ishlanmasi**

Samarqand – 2024

Tuzuvchi:

M.Fayzullayev – “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrası assistenti.

Taqrizchilar:

M.Mardonov – TDIU Samarqand filiali “Buxgalteriya hisobi va statistika”
mudiri dotsenti, i.f.n.

A.Aliqulov – “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrası professori v.b.,
iqtisodiyot fanlari doktori

Kelishildi: O‘quv-uslubiy boshqarma

boshlig‘i, professor v.v.b.

R.F.Ro‘ziqulov

**“Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i” mavzusidagi amaliy
mashg‘ulot o‘qitish texnologiyasi**

Vaqt-2 soat.	Talabalar soni: 18-nafar.
O‘quv mashg‘ulotining shakli	Binar amaliy munozara.
Amaliy mashg‘uloti rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1 Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i va uning o‘ziga xosligi.. 2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i soliq solish ob‘yekti va soliqqa tortiladigan baza. 3. Jismoniy shaxslarning jami daromadi va uning tarkibi. Jami daromadga kiritilmaydigan daromadlar. 4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha imtiyozlar. 5. Soliq hisobotini taqdim etish va to‘lash tartibi.
<p><i>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</i> Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining mohiyati, soliq to‘lovchilar, soliq ob‘ekti va bazasi, soliqqa tortish tizimining normativi huquqiy asoslari, soliq munobatlarining sub‘yektlari, ularning huquqlari va majburiyatlari, soliq hisobi va soliq hisobotlari, soliq majburiyatlarini bajarish, soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisob kitobini taqdim etish va to‘lash tartiblari hamda ularni buxgalteriya hisobida aks ettirish bo‘yicha amaliy ko‘nikma shakllantirish.</p>	
<p><i>Pedagogik vazifalar:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> - mavzu bo‘yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish; - o‘z fikrini ilgari surish asoslash, muzokara qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish; - muammoli vazifalarni yechishni faollashtirishni rag‘batlantirish; - muammoli vazifalarni yechishda eng yaxshi yechimlarni tanlash va baholash ko‘nikmalarini hosil qilish; - kommuniktsiya, guruhda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish. 	<p><i>O‘quv faoliyatining natijalari:</i></p> <p>Talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining mohiyati, soliq to‘lovchilar haqida ma‘lumot ega bo‘ladi; - Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i stavkalari bilib oladi; - Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha imtiyozlari quyilay oladi; -Hisob-kitoblarni taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi o‘rganib chiqadi.
O‘qitish usullari va texnikasi	Munozara, muammoli usul. To‘g‘ridan-to‘g‘ri jamoaviy aqliy hujum, BBB jadvali
O‘qitish vositalari	O‘quv qo‘llanmalar, o‘quv daftarlari, A4 kattaligidagi qog‘oz, marker, skotch.
O‘qitish shakllari	Frontal, guruh va jamoada ishlash.
O‘qitish sharoitilari	Texnik ta‘minlangan, guruhlarda ishlashga moslashtirilgan auditoriya.

“Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i” mavzusidagi amaliy mashg‘ulotining texnologik kartasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	o‘qituvchi	talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	<p>O‘quv mashg‘ulotining mavzusi maqsadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o‘tkazish rejasini aytadi. O‘qitish guruhlarda ishlash texnologiyasi asosida o‘lshib borilishini e‘lon qiladi.</p> <p>Mavzuning tayanch iboralari asosida blits-so‘rov o‘tkazadi.</p> <p>Talabadan javobni eshitadi va mavzu muhokamasi guruhlariga ishlar taqdimotidan so‘ng davom etishini e‘lon qiladi.</p> <p>Har bir talaba guruh bahosiga mos ravishda baho olishini tushuntiradi, guruhlarda ishlash qoidalari bilan tanishtiradi (2-ilova). Guruhlarda ishlash natijasi plakat qog‘ozlarda ko‘rsatilishi kerakligini ma‘lum qiladi.</p>	<p>1.1. Tinglaydilar, yoziboladilar.</p> <p>1.2. Savollarga javob beradilar</p>
2-bosqich. Asosiy (20 min.)	<p>2.1. Talabalarni 3 guruhga ajratadi. O‘quv topshiriqlarini tarqatadi (4-ilova).</p> <p>Vazifa butun guruh tomonidan bajarilishini e‘lon qiladi. Vazifani bajarishda darslik, ma‘ruza matnlari va boshqa qo‘llanmalardan foydalanish mumkinligini tushuntiradi. O‘quv natijalarini eslatadi.</p> <p>Guruhlarda ishlarni boshlashni e‘lon qiladi.</p>	<p>2.1. O‘quv topshiriqlarini baholash ko‘rsatkichlari va mezonlari bilan tanishadilar.</p> <p>Vazifani bajaradilar</p>
3-bosqich. Taqdimot (45 min.)	<p>Taqdimot va guruhlarda ishlash natijalarini o‘zaro baholashni tashkil etadi. Javoblarni sharhlaydi, bilimlarni umumlashtiradi, vazifani bajarish jarayonidagi asosiy xulosalarga e‘tiborni qaratadi.</p> <p>Munozara uchun savollar beradi (5-ilova).</p>	<p>3.1. Taqdimot qilishadi, qo‘shimchalar qilishadi, baholashadi.</p>
4-bosqich. Yakuniy (5 min.)	<p>Mashg‘ulotga yakun yasaydi, faol ishtirokchilarni rag‘batlantiradi. Kelajakda amaliyot va o‘quv faoliyatidagi ahamiyatini ta‘kidlaydi.</p> <p>Mustaqil ish uchun vazifa beradi.</p>	<p>Tinglaydilar, aniqlashtiradilar.</p> <p>Mustaqil ish uchun vazifani yozib oladilar.</p>

1-ilova.**Amaliy mashg'ulotda ishlash tartibi va reglamenti**

1. Guruhda ishlash va prezentatsiyani tayyorlash – 20 min.
2. Ish natijalarini prezentatsiya orqali namoyish qilish – 5 min.
3. Jamoa bo`lib ishlash va guruhlarni baholash – 5 min.

2-ilova.**Guruh bilan ishlash qoidalari**

Har biri o`z sheriklarining fikrlarini xurmat qilishlari lozim;
 Har biri berilgan topshiriqlar bo`yicha faol, hamkorlikda va mas`uliyat bilan ishlashlari lozim;
 Har biri o`zlariga yordam kerak bo`lganda so`rashlari mumkin; Har biri yordam so`raganlarga ko`mak berishlari lozim;
 Har biri guruhni baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim;
 Har biri: “Biz bir kemadamiz, birga cho`kamiz, yoki birga qutilamiz” atamasini yaxshibilishlari lozim.

3-ilova.**Baholash mezonlari va ko`rsatkichlari (ball)**

Guruh	Yondoshuvning (to`liqligi, to`g`riligi)	Grafikda to`g`ri tasvirlash	Guruh faolligi	Muammo nifaol yechilishi	Ballar yig`indisi
	(1,0)	(0,6)	(0,4)	(1,0)	(3,0)
1					
2					
3					

4-ilova.**B.B.B. usuli asosida bilimlarni sinash uchun tarqatma materiallar**

	Tushuncha	Bilaman	Bilib olidim	Bilishni hohlayman
1	Ortiqcha ushlangan soliq summasini qaytarish tartibi			
2	Jami yillik daromad to`g`risidagi deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlar			
3	Jami yillik daromad to`g`risidagi deklaratsiyani taqdim etish tartibi			
4	Soliq davri. Hisobot davri			
5	Qat`iy belgilangan miqdordagi soliq stavkalari			
6	O`zbekiston Respublikasining norezidentlari bo`lgan jismoniy shaxslar uchun soliq stavkalari			

7	Jismoniy shaxslarni soliq solishdan ozod etish			
---	--	--	--	--

O`quv topshiriqlar

1 – guruh

- 1) Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining mohiyatini tushuntirib bering?
- 2) Qanday shaxslarni jismoniy shaxslar deb atashadi?
- 3) Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining soliq to'lovchilari deb tarif bering
- 4) Jami daromadga kiritilmaydigan daromadlar tarkibi sanab bering.
- 5) Mulkiy daromadlar ?

Masala: Ruziyevlar xonadoni 8 kishidan iborat. Qulmamat ota, Rixsi ona, Doniyor aka, Mastura opa, Sherbek, Dilnoza, Jamshid va Umida. Oila noyabr oyida

Qulmamat ota pensioner, 2 160 000 sum pensiya oldi.

Rixsi ona pensioner, 1870 0000 sum pensiya oldi.

Doniyar aka shifokor 3 500 000 sum va qushimcha 1 000 000 sum miqdorida shifokorlar kuni uchun mukofot puli qushimcha tularan.

Mastura opa o'qituvchi, 2 100 000 sum oylik oldi.

Sherbek talaba, tulov shaxtnomasi asosida ta'lim oladi, Sherbekning tulov shartnoma summasi uchun Mastura opa shu oy oylik maoshining 50 % miqdorini o'tkazdi.

Dilnoza maktab o'qituvchisi, Dilnoza shu oy xalqoro shaxmat musobaqasida 2-o'rinni egallagani uchun 20 000 000 sum mukofot berildi.

Jamshid va umida esa bog'cha tarbiyalanuvchisi.

Oilaning shu oydagi daromad solig'ini hisoblang.

Masala. Jismoniy shaxsga 2022 yilning may va iyun oylarida 1900000 so'm (950000 + 950000) ish haqi hisoblangan. Eng kam ish haqi miqdori 172240 so'm.

Talab qilinadi:

1. Jismoniy shaxsdan may oyida ushlanishi lozim bo'lgan daromad solig'i summasini aniqlang?
2. Jismoniy shaxsdan iyun oyida ushlanishi lozim bo'lgan daromad solig'i summasini aniqlang?

Masala. Oyiga EKIHMning 6 baravaridan oshmaydigan daromadlar bo'yicha soliq va boshqa majburiy to'lovlar hisob-kitobi bo'yicha masala.

Xodimga 2022 yil yanvar oyi uchun 850 000 so'm miqdorida ish haqi hisoblangan.

Talab qilinadi:

1. Jismoniy shaxsdan yanvar oyida ushlanishi lozim bo'lgan daromad solig'ini aniqlang?
2. Jismoniy shaxsdan yanvar oyida ushlanishi lozim bo'lgan majburiy to'lovlar summasini aniqlang?

2 – guruh

1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining o'ziga xos xususiyatlari nimada?
2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i budjet daromadlari tarkibida qanday ahamiyatga ega?
3. Rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar qaysilar?
4. Kompensatsiya to'lovlari (kompensatsiya)?
5. Moddiy naf tarzidagi daromadlar ?

Masala: Shermatovlar oilasi 7 kishidan iborat. Normamat ota, Xosiyat ona, Sherqul aka, Nasifa opa, Dilshod, Asliddin va Sevinch. Oila noyabr oyida Normamat ota pensioner 2 300 000 sum pensiya oldi. Xosiyat ona pensioner 2 160 000 sum miqdorida pensiya oldi. Xosiyat ona maktabda ham 0.75 stavka darsi bor, bu oy 2100 000 sum oylik oldi. Sherqul aka hisobgi bo'lib ishlaydi, shu oy 6 300 000 sum oylik oldi. Sherqul aka avg'on urushi ishtirokchisi. Nafis opa xamshira, bu oy 2500 000 sum oylik oldilar. Dilshod va Asliddin xususiy maktabda ta'lim oladilar. Ta'lim tulovlarini Xosiyat opa pensiyasidan o'tkazib berdi. Sevinch bog'cha tarbiyalanuvchisi. Oilaning shu oy daromad solig'ini hisoblangan.

Masala. Oyiga EKIHMning 10 baravaridan ziyod bo'lgan daromadlar bo'yicha soliq va boshqa majburiy to'lovlar hisob-kitobi bo'yicha masala. Xodimga 2018 yil yanvar oyi uchun 1 800 000 so'm ish haqi hisoblangan.

Talab qilinadi:

1. Jismoniy shaxsdan yanvar oyida ushlanishi lozim bo'lgan daromad solig'ini aniqlang?
2. Jismoniy shaxsdan yanvar oyida ushlanishi lozim bo'lgan majburiy to'lovlar summasini aniqlang?

Masala. Kompensatsiya to'lovlarini (xizmat safari xarajatlarini) hisobga olgan holda soliq hisob-kitobi bo'yicha masala.

Korxonaga xodimga 2023 yil yanvar oyi uchun 850000 so'm ish haqi hisoblangan. Korxonaga rahbarining O'zbekiston Respublikasi hududida xizmat safarida bo'lish vaqtidagi kundalik xarajatlarni qoplash to'g'risidagi buyrug'i bilan respublikada belgilangan EKIHMning 40 foizga teng bo'lgan kundalik xarajatlar miqdori belgilangan. Xodim Navoiy shahriga sakkiz kunga xizmat safariga yuborilgan. Tegishli ravishda kundalik xarajatlar miqdori 479280 so'mni ($172240 \times 40\% \times 8$) tashkil etadi.

Talab qilinadi:

1. Jismoniy shaxsdan yanvar oyida ushlanishi lozim bo'lgan daromad solig'ini aniqlang?
2. Jismoniy shaxsdan yanvar oyida ushlanishi lozim bo'lgan majburiy to'lovlar summasini aniqlang?

3 - guruh

1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining to'lovchilari kimlar?
2. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlariga qaysi daromad turlari kiradi?
3. Ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash ?
4. Soliq solinmaydigan daromadlar qaysilar?
5. Jismoniy shaxslarning qanday daromadlari soliq solishdan ozod etiladi?

Yuldoshovlar oilasi 6 kishidan iborat. Sherali aka, Mohigul opa, Doniyor, Jamshid, Shoxjahon va Dilnoza. Oila noyabr oyida

Sherali aka harbiy qismda kapitan bo'lib ishlaydilar, bu oy 5 120 000 ming oylik oldi, joy ijarasi uchun ham qushimcha 3 500 000 sum to'landi.

Mohigul opa brach labarant shu oy 2 650 000 ming sum oila bu yil subsidiya to'lovi asosida uy olgan bo'lib oylikning 75% uy tulovi uchun o'tkazildi.

Doniyor talaba, davlat granti asosida ta'lim oladi. Bu oy 755 000 sum stipendiya oldi.

Shoxjahon maktab o'qituvchisi.

Dilnoza uy tarbiyalanuvchisi. U ikkinchi guruh nogironi. Dilnozaga 560 000 sum nogironlik nafaqasi tulandi. Oilaning shu oy daromad solig'ini hisoblangan.

Masala. O'zR Soliq kodeksi bo'yicha har bir to'liq oy uchun eng kam ish haqining to'rt baravari miqdorida imtiyozga ega bo'lgan jismoniy shaxsga 2020 yil may oyida 1150000 so'm ish haqi hisoblangan. Eng kam ish haqi miqdori 172240 so'm.

Talab qilinadi:

1. Jismoniy shaxsdan ushlanishi lozim bo'lgan daromad solig'ini aniqlang?
2. Jismoniy shaxs qancha miqdorida daromadga ega bo'ladi?

Masala. Oyiga EKIHMning 10 baravaridan oshmaydigan daromadlar o'yicha soliq va boshqa majburiy to'lovlar hisob-kitobi bo'yicha masala.

Xodimga 2022 yil yanvar oyi uchun 1400 000 so'm miqdorda ish haqi hisoblangan.

Talab qilinadi:

1. Jismoniy shaxsdan yanvar oyida ushlanishi lozim bo'lgan daromad solig'ini aniqlang?
2. Jismoniy shaxsdan yanvar oyida ushlanishi lozim bo'lgan majburiy to'lovlar summasini aniqlang?

Nazorat savollari

1. O'zbekiston Respublikasining rezidentlari bo'lgan jismoniy shaxslar uchun soliq stavkalari qanday?
2. O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'lgan jismoniy shaxslar uchun soliq stavkalari?
3. Soliq hisobotini taqdim etish tartibi va muddatlari haqida nimalarni bilasiz?